

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi



markazi direktori

L.X. Musadjanova

L.X. Musadjanova
12 dekabr 2025 y.

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori



L.X. Musadjanova

L.X. Musadjanova
12 dekabr 2025 y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

Farmasevt assistenti

(sikl bo‘yicha ixtisoslashtirish guruhlar uchun)

O‘QUV DASTURI

(576 kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVCHILAR:

S.Z.Rashidov

TTA Farmakologiya kafedrası assistenti

M.M.Ismailova

Respublika o`rta tibbiyot va farmatsevtika
xodimlari malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi o`qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

E.M.Ruzimov

TTA Farmakologiya kafedrası assistenti
PhD

Z.Z.Imamova

Respublika o`rta tibbiyot va farmatsevtika
xodimlari malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi o`quv
ishlari boyicha direktor o`rinbosari

O`quv dasturi Respublika o`rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko`rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 2025 y.

bayonnoma № 6

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O`quv dasturi direktorlar kengashida ko`rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 2025 y.

bayonnoma № 5

1.Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan.

Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o‘quv fanining mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. “Farmatsevt assistenti” o‘quv dasturi yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, 10 yildan ortiq mehnat tajrida uzilish bo‘lgan mutaxassislarini 576 kredit ixtisoslashtirish uchun mo‘ljallangan. Dasturda o‘quv fanining mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan.

Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo‘lib: kasbiy rivojlanish modulida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish haqida” 255-sonli buyrug‘i ijrosini bajarish maqsadida “Tibbiyot sohasida korruptsiyaning oldini olish”moduli kiritildi. Kasbiy rivojlanish moduli ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm–fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilib, tibbiy ta‘limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan

1.1. Maqsad:

Farmatsevt assistentlarini dorixona va tibbiyot muassasalarida dori vositalarini qabul qilish, saqlash, tayyorlash va aholiga to‘g‘ri tarzda taqdim etish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashdan iborat. Dorivor o‘simliklardan, hayvonlardan va kimyoviy yo‘l bilan olinadigan dorivor moddalarni o‘rgatish bo‘yicha yangi nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

Dastur bo‘yicha dorixona muassasalari va turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar, tayyor dori-darmonlar, parafarmatsevtik mahsulot va tibbiy buyumlarni, dorivor o‘simliklar va ulardan sharbatlar tayyorlaydigan dorilar bo‘limlarida, davolash profilatika muassasalari uchun dori tayyorlaydigan dorixonalarda buyurtmalarni to‘plovchi, farmatsevt tovarshunos, dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarida tayyor dori vositalarni qadoqlash va markirovkalash bo‘yicha operator lavozimlarida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o‘rta tibbiyot xodimlarini har tomonlama yetuk, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va meyoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo‘llay olishga o‘rgatish;
- dori vositalari, ularning turlari va farmakologik xususiyatlari haqida bilim berish.
- dorixona sharoitida dori vositalarini qabul qilish, hisobga olish va saqlash qoidalarini o‘rgatish.
- retseptlar bilan ishlash va dori vositalarini to‘g‘ri berilishini ta‘minlash.
- dori vositalarini tayyorlash va qadoqlash jarayonlarini bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish.
- sanitariya-gigiyena va sterillik qoidalariga rioya qilishni ta‘minlash.
- dorixona hujjatlarini yuritish va hisob-kitob ishlarini amalga oshirish.
- aholiga dori vositalarini qo‘llash tartibi bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish.
- farmatsevtika sohasida xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalarini o‘rgatish.
- dorixona muassasalari ishini tashkil qilish, dorixonalarda retsept qabul qilish va ular asosida dori vositalarni berish;
- dori vositalarining retseptsiz savdosini tashkil qilish;

- dorixona sharoitida dori vositalarni tayyorlash va sifatini nazorat qilishni tashkillashtirish;
- dorixonalarda dori vositalarini hisobga olish va xisobot inventarizatsiya o'tkazish;
- dorixonada tayyorlangan dori vositalari sifatini yaxshilash usullarini o'rganish;
- dorixona muassasalariga farmatsevtik faoliyati uchun litsenziya berish muammolarini yechish;
- bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirishsog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va meyoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- dori vositalari, ularning turlari va farmakologik xususiyatlari haqida bilim berish.
- dorixona sharoitida dori vositalarini qabul qilish, hisobga olish va saqlash qoidalarini o'rgatish.
- retseptlar bilan ishlash va dori vositalarini to'g'ri berilishini ta'minlash.
- dori vositalarini tayyorlash va qadoqlash jarayonlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish.
- sanitariya-gigiyena va sterillik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash.
- dorixona hujjatlarini yuritish va hisob-kitob ishlarini amalga oshirish.
- aholiga dori vositalarini qo'llash tartibi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish.
- farmatsevtika sohasida xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalarini o'rgatish.
- dorixona muassasalari ishini tashkil qilish, dorixonalarda retsept qabul qilish va ular asosida dori vositalarni berish;
- dori vositalarining retseptsiz savdosini tashkil qilish;
- dorixona sharoitida dori vositalarni tayyorlash va sifatini nazorat qilishni tashkillashtirish;
- dorixonalarda dori vositalarini hisobga olish va xisobot inventarizatsiya o'tkazish;
- dorixonada tayyorlangan dori vositalari sifatini yaxshilash usullarini o'rganish;
- bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dasturi dorixona muassasalari va turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar, tayyor dori-darmonlar, parafarmatsevtik mahsulot va tibbiy buyumlarni, dorivor o'simliklar va ulardan sharbatlar tayyorlaydigan dorilar bo'limlarida, davolash profilatika muassasalari uchun dori tayyorlaydigan dorixonalarda buyurtmalarni to'plovchi, farmatsevt tovarshunos, dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarida tayyor dori vositalarni qadoqlash va markirovkalash bo'yicha operator lavozimlarida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan mehnat stajida 10 yildan ortiq uzilish bo'lgan "Farmatsevt assistenti" yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- Farmatsevtik faoliyat bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, qonunga kiritilgan o'zgartirishlar, Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi meyoriy hujjatlardan keng foydalanishni bilish;
- aholiga o'z vaqtida dori vositalar bilan hizmat ko'rsatishning zamonaviy va samarali usullarini qo'llay olish;
- davolash profilaktika muassasalarining dorixonalari va u yerda dori vositalarni tayyorlash, ulardagi kunlik ish yuritish tartiblari, dorixonalarni dorilar va tibbiy vositalar bilan ta'minlanishi, dorilarningsifati va yaroqlilik muddatini nazorat etish va tekshirish tadbirlarini o'tkazish;
- dori-darmonlarning farmakologik xususiyatlarini, ko'rsatma va mone'liklarini bilish;
- dori-darmonlarni to'g'ri saqlash, tarqatish va ta'minlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- retseptsiz beriladigan dori-darmonlar, tibbiy jihozlar ro'yxatini bilish;
- mutaxassisligi bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarni bilish va rioya qilish;
- davolash- profilaktika muassasalari dorixonalarida dori tayyorlash va ulardagi kunlik ish yuritish tartiblarini bilishi;
- dorixonaning dori va tibbiy vositalar sifatiga e'tibor berib sifatsizlarini ajrata olishi;
- dori vositalar va tibbiy buyumlarni saqlashni qoida va talablarga binoan amalga oshirishi;
- yangi dorivor o'simliklarni izlab topish va ulardan yangi dorilarni ajratib olish;
- dorixonalarda dori vositalarini xisobga olish;
- dorixonada tayyorlangan dori vositalari sifatini yaxshilash usullarini o'rganish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Sog'liqni saqlash tizimida dorixonalar va farmatsevtika muassasalari soni ortib bormoqda. Aholini sifatli va xavfsiz dori vositalari bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Dori vositalarini to'g'ri saqlash va tarqatishda malakali farmatsevt assistentlariga ehtiyoj yuqori. Zamonaviy farmatsevtika standartlari va qoidalarini amaliyotga joriy etish talab etilmoqda.

Farmatsevtika sohasida tibbiy xodimlarning kasbiy malakasini oshirish sog'liqni saqlash tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

1.6. Dastur hajmi: 576 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi
- on/offline, masofaviy /an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ajralmagan holda.

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:

Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi

№160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik 30 daqiqa.

1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan hujjat: O'quv kursini to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Farmatsevt assistenti" yo'nalishi bo'yicha 576 kredit ixtisoslashtirish o'tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari) dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:

Umumkasbiy kompetensiyalar

- Tibbiy etika va deontologiya qoidalariga amal qilish.
- Aholi va bemorlar bilan to'g'ri muloqot qilish.
- Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasidagi meyoriy-huquqiy hujjatlarni bilish va amalda qo'llash.
- Sanitariya-gigiyena talablariga va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish.
- Tibbiy va farmatsevtik hujjatlarni to'g'ri yuritish.
- hamkasblar, bemorlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirish;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- *Farmatsevtik kasbiy kompetensiyalar*
- Dori vositalarining turlari, tarkibi va farmakologik xususiyatlarini bilish.
- Dorixonaga kelib tushgan dori vositalarini qabul qilish va hisobga olish.
- Dori vositalarini saqlash qoidalariga muvofiq joylashtirish.
- Retseptlar bilan ishlash va dorilarni to'g'ri berish.
- Dori vositalarini qadoqlash va markirovka qilish.
- aholiga o'z vaqtida dori vositalar bilan hizmat ko'rsatishning zamonaviy va samarali usullarini amalda qo'llash;
- dori-darmonlarni to'g'ri saqlash, tarqatish va ta'minlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yangilanadi;
- dorixona iste'molchiga sifatli dori-darmonlar, tibbiyot jihozlari va bemorlarning parvarishi bo'yicha gigiyenik mahsulotlar bilan ta'minlashishlarini amalga oshirish qobiliyatlari yangilanadi;
- iste'molchi talabini o'rganish va shu asosida omborga talabnoma berish ko'nikmalari yangilanadi;
- iste'molchidan qabul qilingan pullarning kassa operatsiyasi(amaliyoti)ni va pul muomalasi hisobotini yuritish qobiliyati oshadi;
- dori-darmonlarni tayyorlash jarayonida ishtirok etish ko'nikmalari yangilanadi;
- o'rnatilgan tartibda hujjatlarni yuritish;
- kasbiy faoliyatga oid jarayon bosqichlarini amalga oshirish maqsadida yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta'minlanishiga erishish;
- kechiktirib bo'lmaydigan xolatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- muassasa va tashkilot rahbariyatiga kasbiy faoliyatni amalga oshirishda yuzaga kelgan muammo va masalalar haqida ma'lumot taqdim etish;
- o'z kasbiy vazifalarni aniq va sifatli bajarish bo'yicha ma'lumot olish, o'rta tibbiy xodim ishini takomillashtirish borasida takliflar kiritish;
- aholining turli qatlamlari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

- kasbiy faoliyat doirasida o'z vakolatlari, mas'uliyati va zimmasiga yuklatilgan vazifalarning qonuniyligini anglash;
- shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- kasbiy faoliyat doirasida o'z vakolatlari, mas'uliyati va zimmasiga yuklatilgan vazifalarning qonuniyligini anglash.

Klinik-amaliy kompetensiyalar

- Dori vositalarini tayyorlash jarayonida ishtirok etish.
- Dorixona asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish.
- Dori vositalarining sifati va yaroqlilik muddatini nazorat qilish.
- Sterillik, aseptika va antiseptika qoidalariga amal qilish.
- Dorilarni saqlash va tarqatishda xavfsizlik talablariga rioya qilish.

Maslahat va profilaktik kompetensiyalar

- Aholiga dori vositalarini to'g'ri qabul qilish tartibi haqida tushuntirish.
- Dori vositalarini noto'g'ri qo'llashning oldini olish bo'yicha maslahat berish.
- Sog'lom turmush tarzi va profilaktik tadbirlar haqida aholini xabardor qilish.
- yangi dori-darmonlarning farmakologik xususiyatlarini, ko'rsatma va mo'neliklari haqida ma'lumot berish;

3. DASTUR MAZMUNI.

3.1. "Farmatsevt assistenti" ixtisoslashtirish kursi 576 kredit o'quv dasturi rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Attestatsiya
1.0	Kasbiy rivojlantirish modullari	78	42	36	
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	12	4	8	
1.3	Modul: Xorijiy til.	12	4	8	
1.4	Modul: Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.	6	6	-	
1.5	Modul: Infekcion nazorat	12	8	4	
1.6	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.	6	2	4	
1.7	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	6	2	4	
1.8	Modul: Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	18	10	8	
2.0	Mutaxassislik fani modullari	492	164	328	
2.1	Modul: Farmatsevtika asoslari. O'zbekistonda dorixona xizmatini tashkil etilishi va rivojlanish tarixi.	48	16	32	
2.2	Modul: Farmatsevtika menejmenti. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan farmatsevtika sanoatining rivojlanishi. Mahalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari.	84	28	56	
2.3	Modul: Lotin tili terminologiyasini farmatsevtika sohasida qo'llash.	84	28	56	
2.4	Modul: Dori turlari texnologiyasi. Dorixonaga qo'yilgan talablar. Dori vositalarni organizmga ta'siri.	60	20	40	
2.5	Modul: Respublikada farmatsevtik bozorni shakllanishi va rivojlanishi. Dorixona omborida tovarlar harakatini tashkil qilish.	84	28	56	

2.6	Modul:Farmatsevtik kimyo. Dori preparatlarining sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullari.	48	16	32	
2.7	Modul: Farmakognoziya. Fito preparatlar. Xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor o'simliklar.	84	28	56	
	Attestatsiya	6			6
	Jami	576	206	364	6

“Farmatsevt assistenti” 576 kredit ixtisoslashtirish kursi o‘quv modullarining mazmuni

1.1.Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim.Islohotlar markazida “Inson qadri uchun”degan ezgu tamoyil ustuvor.Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.“Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda sog‘liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas‘uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma‘lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

1.2.Modul: Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari. Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma‘lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma‘lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. “Tibbiyot informatikasi asoslari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;

hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma‘lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul: Xorijiy til. Ingliz tilini o‘qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o‘rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo‘llaniladigan terminlar. Ingliz tilida o‘zini tanishtirish xaqida ma‘lumotlarni berish va ularni og‘zaki nutqda qo‘llash. Fe‘llar xaqida ma‘lumot. So‘zlarni talaffuz qilinishi. Tana a‘zolarining nomlanishi. Ularni og‘zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o‘rgatish va qo‘llash. Tibbiyotda ko‘p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish. Tibbiyot xamshiralari ingliz tilida mutaxassislarni nomini tushuntirish. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o‘rgatish.

1.4. Modul. Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar. Sog‘liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog‘liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo‘nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to‘liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog‘liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi

mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

1.5. Modul. Infekcion nazorat. Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish.

Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

1.6. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

1.8. Modul: Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulodda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam kursatish: o'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam, jarohatlarda, suyak sinishlarda va Krash sindromida birinchi yordam. Kuyish, turlari, belgilari. Kuyishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari. Inson hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish: cho'kishda birinchi yordam, bo'g'ilishda birinchi yordam, elektrdan shikastlanishda birinchi yordam, o'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam, sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam, xasharotlar chaqishida va xayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish. O'tkir yurak qon tomir va nafas yetishmovchiligi, kelib chiqish sabablari. Nafas yullari obstruksiyasi. Yot jism nafas yullariga tushganda Geymlix usulini ko'llash texnikasi. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak -o'pka reanimatsiyasi (**SAB**) va uni bajarish algoritmi. Kritik holatlar (xushdan ketish, kollaps, shok, koma). Turlari, sabablari, klinik belgilari va yordam ko'rsatish.

2.1 Modul: Farmatsevtika asoslari. O'zbekistonda dorixona xizmatini tashkil etilishi va rivojlanish tarixi. Farmatsevtika fani asoslari maqsad va vazifalari. Farmatsevtikaning rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlar. O'zbekiston Respublikasida dorixona xizmatini tashkil etilishi. Dorixona turlari. O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi. Litsenziya xaqida tushuncha. Farmatsevtik faoliyat xaqida tushuncha. Farmatsevtik faoliyat turlariga litsenziya olish masalalari. Dorixonaning moddiy-texnika bazasi, xonalarining yangi zamonaviy anjomlar, yordamchi vositalar bilan jihozlanishi. Dorixonaning farmatsevt assistenti vazifalari, xuquqlari. Dorixonalarda turli xildagi dori vositalarni tayyorlash. Dorixonalarda turli xil dorilarning tegishli qoida va tartib asosida saqlanishi. Dorilarning sifati va muddatiga nazorat etish masalalari. Dorixona ombori haqida va u yerda tovarlar harakatini tashkil qilish. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi, uning vazifalari. Turli xildagi dorixonalar tomonidan olib boriladigan sanitariya tadbirlari.

2.2 Modul: Farmatsevtika menejmenti. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan farmatsevtika sanoatining rivojlanishi. Maxalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari. Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari, mohiyati, uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi. Menejment predmeti

va izlanish uslublari. Menejment obyekt va subyekti. Menejment turlari. Respublikada farmatsevtik bozorni shakllanishi va rivojlanishi. Respublikada farmatsevtik ishlab chiqarish soxasini rivojlanishi, ishlab chiqarilayotgan dori turlari, ularga qo'yilgan talablar. Maxalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari.

2.3 Modul: Lotin tili terminologiyasini farmatsevtika soxasida qo'llash. Lotin tili terminologiyasidan keng foydalanish. Dori vositalari, xamda retsept blankalari bilan ishlash. Lotincha-yunoncha termin-elementlarni umumiy ma'nosini bilish. Co'z birikmalarining ma'nosini to'g'ri tahlil qilish. Lotin tili fanini o'zlashtirish asosida lotin tili harflarini yozilishi va o'qilishini, a'zo nomlarini lotincha va yunoncha tarjimasini, farmatsevtik terminlar haqida tushuncha. Terminlarni fonetik va grammatik jihatdan to'g'ri o'qish va yozish, ularni amaliyotda qo'llash. Retseptura bo'limining asosiy vazifalari. Retsept va uning tarkibiy qismlari. Retsept blankalari vaularni yozish tartibi.

2.4 Modul: Dori turlari texnologiyasi. Dorixonaga qo'yilgan talablar. Dori vositalarni organizmga ta'siri. Dori vositalarni organizmga ta'siri. Birinchi dorixonalarning ochilish tarixi. Dori turlari texnologiyasi fanining predmeti, maqsadi va rivojlanish tarixi. Dori vositasi, dori moddasi, zaharli va kuchli ta'sir etuvchi narkotik va psixotrop dorilari ro'yhati haqida tushuncha. Dori shakllarini sinflarga bo'linishi, ularni organizmga yuborish yo'llari. Tayyorlangan dori turlarini qadoqlash va yorliqlash, yorliqlarning turlari. Dori turlari: suyuq dorilar, eritmalar, suspenziyalar, emulsiyalar, yumshoq dori turlari. Linimentlar, surtma dorilar, pastalar. Kosmetologik kremlar. Steril dori turlari va aseptik sharoitda tayyorlanadigan dori shakllari. Inyeksion dorilar va ularning organizmga ta'siri.

2.5 Modul: Respublikada farmatsevtik bozorni shakllanishi va rivojlanishi. Dorixona omborida tovarlar harakatini tashkil qilish.

Dorixona omborida tovarlar harakatini tashkil qilish. Tibbiy va farmatsevtik tovarshunoslik fani va uning maqsad va vazifalari haqida tushuncha. Tibbiyot tovarshunosligining asosiy tamoyillari. Tovarlarni, ularning tasnifi. Tovarlarni assortimenti. Assortiment tasniflash. Tibbiyot tovarlarni tasniflash va yetkazib berish masalalari. Tovarlarning sifati, ko'rsatkichlari, me'zonlari. iste'mol xossalari. Sifat nazorati va standartlash. Standartlashning umumiy savollari va asosiy ta'riflar. Tibbiyot tovarlarini qadoqlash va saqlash. Hisob-kitob qilish maqsadida tibbiyot tovarlarning assortimentini o'rganish. Tibbiyot tovarlarni tayyorlovchi sanoat korxonasi va ushbu mahsulotlardan foydalanuvchi tibbiyot muassasasining assortiment siyosatini tahlil qilish uchun tovarlarning assortiment ko'rsatkichlarining xususiyatlarini o'rganish. Tibbiyot tovarlarning assortimentini boshqarish.

2.6 Modul: Farmatsevtik kimyo. Dori preparatlarining sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullari. Farmatsevtik kimyo fani haqida umumiy tushuncha. Kimyo, biologiya, farmatsiya fanlari bilan bog'liqligi. Davlat farmakopeyasi, farmatsevtik kimyo fanining, farmatsevt mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyati. Dori preparatlarining sifatini nazorat qilishni zamonaviy usullari. Dori moddalarini tahlil qilish usullari: fizik, kimyoviy, biologik. miqdori va ekspress tahlil usullari, xromatografiya usullari. Refraktometriya usulida tekshirish. Organik birikmalar. Organik birikmalarining olinish manbalari va tabiiy, sun'iy usullari. Ularning tasnifi va nomenklaturasi. Saqlash sharoiti va barqarorligini ta'minlash choralarini. Alitsiklik alkanlar. Spirtlar va aldegidlar. Karbon kislotalar va ularning amidli xosilalari. Aminokislotalar. Antibiotiklar. Antibiotiklarning ta'rifi, olinishi, kimyoviy tasnifi, ishlatilishi. Aromatik birikmalar. Dori moddalarini tahlil qilish usullari. Taxlilidagi umumiyliklar va xususiy reaksiyalar, qo'llanishi va saqlanishi.

2.7 Modul: Farmakognoziya. Fito preparatlar. Xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor o'simliklar. O'zbekistonda farmakognoziya fanining rivojlanishi. Uning farmatsiya va tibbiyotdagi ahamiyati. Dorivor o'simliklarni botanik tuzilishiga qarab o'rganish. Yangi dorivor o'simliklarni izlab topish va ulardan yangi dorilarni ajratib olish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari. Respublikada dorivor o'simliklar va ularning mahsulotlarini yig'ishni tashkil etish. Yig'ishning umumiy va o'ziga xos qoida va tartibi. Dorivor o'simlik mahsulotlarini o'ziga xos quritish va buning ahamiyati. O'simlik mahsulotlarini mezonlash, joylash va yorliqlashtirish. Dorivor o'simlik mahsulotlarini saqlash qoidasi, muddati. Ularga tashqi muhitning ta'siri. O'simlik mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurashish tadbirlari. Dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilib tekshirish usullari. Fito choylarning tarkibi va ularni organizmga ta'siri.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliy kunikmalarni mustaxkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom, mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar, tarqatmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI:

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6.05.2019 yildagi № 4310-sonli "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

4.3.2. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Xidoyatova Z.SH., Islomova M.Z., Saidova M.Y.: Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy ko'rsatma
1-to'plam Toshkent – 2009 yil.
2. Xidoyatova Z.SH., Islomova M.Z., Saipova D.T., Saidova, M.Y.: Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalar. 2-to'plam. Toshkent – 2014 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2002 yil 15 aprel 177-sonli buyrug'i "Dorixona muassasalari tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarini tashqi bezagiga doir qoidalarini tasdiqlash" haqida.
4. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2017 yil 17 iyuldagi 31-37 sonli "Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida "gi qarori.
5. X.S. Zaynutdinov, R.Z. Ziyoyev, O.S. Isaxodjayev, G.YE. Sodiqova: «Farmatsiya ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti» Toshkent, "Ilm Ziyoti" nashriyoti, 2012 y.
6. Yusupov M.A., Komilov A.M.: «Farmatsiya ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti». Toshkent "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2004y. 7. Oxunova Z.S., G.A. Madraximova: "Farmatsiya menejmenti" Toshkent, "Ilm Ziyoti" nashriyoti, 2006 yil.
8. Xidoyatova Z.SH., Islomova M.Z., Saidova M.Y.: Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy ko'rsatma
1-to'plam Toshkent – 2009 yil.
9. Xidoyatova Z.SH., Islomova M.Z., Saipova D.T., Saidova, M.Y.: Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalar.

4.3.3 Elektron ta'lim resurslari:

<http://www.minzdrav.uz>

<http://www.recipe.ru>

<http://www.Ziyo.net.uz>

5. YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» asosida o'tkaziladi.